



UO'K: 159.2:17.021.1

Dildoraxon YANGIBOYEVA,
Mustaqil izlanuvchi, PhD, ISFT instituti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: dildorichkayangiboyeva98@gmail.com

ISFT instituti professori, psx.f.d X.Abdusamatov taqrizi asosida

EMOTIONAL ALIENATION AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM IN THE CONTEXT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN UZBEK FAMILIES

Annotation

This article provides a socio-psychological analysis of the formation of emotional alienation within the system of intrafamilial interpersonal relationships, the mechanisms through which it manifests itself, and its individual, dyadic, and family-systemic determinants. Emotional alienation is conceptualized as a multidimensional phenomenon characterized by family members' insufficient experience of mutual emotional closeness, psychological relatedness, being understood and supported, and secure emotional attachment, despite living together in the same physical space. Based on a secondary comparative psychological analysis, the empirical percentage indicators presented in the study concerning family values, marital attitudes, and general life priorities were reorganized into two profiles: a profile dominated by emotional integration resources and a profile dominated by the risk of emotional alienation.

Keywords: Emotional alienation, family relationships, interpersonal relationships, emotional closeness, family belonging, psychological climate, marital communication, parent-child relationships, value orientations, psychological well-being.

ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ АЛИЕНАЦИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА В КОНТЕКСТЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация

В данной статье с социально-психологической точки зрения проанализированы формирование эмоциональной алиенации в системе внутрисемейных межличностных отношений, механизмы её проявления, а также индивидуальные, диадические и семейно-системные детерминанты. Эмоциональная алиенация рассматривается как многомерный феномен, характеризующийся тем, что члены семьи, несмотря на совместное проживание в одном физическом пространстве, в недостаточной степени ощущают взаимную эмоциональную близость, психологическую сопричастность, понимание со стороны близких, поддержку и надёжность эмоциональной привязанности. Представленные в исследовании эмпирические процентные показатели, отражающие семейные ценности, супружеские установки и общие жизненные приоритеты, на основе вторичного сравнительно-психологического анализа были систематизированы в виде профиля с преобладанием ресурсов эмоциональной интеграции и профиля с преобладанием риска эмоциональной алиенации.

Ключевые слова: Эмоциональная алиенация, семейные отношения, межличностные отношения, эмоциональная близость, семейная принадлежность, психологический климат, супружеская коммуникация, детско-родительские отношения, ценностные ориентации, психологическое благополучие.

O'ZBEK OILALARIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA EMOTSIONAL ALIENATSIYA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilaviy shaxslararo munosabatlar tizimida emotsional alienatsiyaning shakllanishi, namoyon bo'lish mexanizmlari, individual, diadik va oilaviy-tizimli determinantlari ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Emotsional alienatsiya oila a'zolarining jismonan bir makonda yashashiga qaramay, o'zaro hissiy yaqinlik, psixologik daxldorlik, tushunilganlik, qo'llab-quvvatlanganlik va xavfsiz bog'langanlikni yetarli darajada his qilmasligi bilan tavsiflanadigan ko'p o'lchovli fenomen sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda oilaviy qadriyatlar, er-xotinlik ustanovkalari va umumiy hayotiy ustuvorliklar bo'yicha taqdim etilgan empirik foizlar ikkilamchi qiyosiy-psixologik tahlil asosida emotsional integratsiya resurslari ustun hamda emotsional alienatsiya xavfi ustun profillar sifatida qayta tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional alienatsiya, oilaviy munosabatlar, shaxslararo munosabatlar, emotsional yaqinlik, oilaviy mansublik, psixologik iqlim, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona va farzand munosabatlari, qadriyatlar orientatsiyasi, psixologik farovonlik.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda oilaning institutsional shakli, funksional yuklamasi va ichki kommunikativ maydoni sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya, oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi, kasbiy bandlikning ortishi hamda shaxsiy muvaffaqiyatga yo'naltirilgan qadriyatlarning kuchayishi oila a'zolarining bir-biriga ajratadigan vaqti, emotsional e'tibori va psixologik mavjudligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada oila tashqi

tomondan saqlanib qolgan, uning a'zolari bir xonadonda yashayotgan va kundalik vazifalarni birgalikda bajarayotgan bo'lsa-da, ichki hissiy bog'lanish, o'zaro tushunish va daxldorlik zaiflashishi mumkin. O'zbek oilalarining an'anaviy va kollektivistik xususiyatlari emotsional alienatsiyani o'rganishda alohida e'tiborni talab qiladi. Oilaga sadoqat, kattalarga hurmat, sabr-toqat, oilaviy sirlarni tashqariga chiqarmaslik va jamoaviy manfaatni shaxsiy ehtiyojdan ustun qo'yish kabi qadriyatlar oilaviy barqarorlikning muhim manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur me'yorlar ayrim

vaziyatlarda shaxsning real kechinmalarini yashirishi, yordam so'rashni qiyinlashtirishi yoki emotsional qoniqmaslikni tan olishga to'sqinlik qilishi mumkin. Demak, oilaga sadoqatning yuqori deklarativ darajasi doimo emotsional yaqinlikning yuqoriligi anglatmasligi mumkin; normativ birlik bilan kechirilayotgan psixologik birlikni farqlash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alienatsiya tushunchasi ijtimoiy va gumanitar fanlarda shaxsning o'zidan, faoliyatidan, boshqa odamlardan, jamiyatdan yoki o'z hayotining ma'nosidan begonalashuvini ifodalash uchun qo'llanadi. M.Seeman alienatsiyani kuchsizlik, ma'nosizlik, me'yoriy yo'nalishning buzilishi, ijtimoiy izolyatsiya va o'zidan begonalashuv kabi o'zaro bog'liq, biroq mustaqil o'lchovlar orqali tavsiflagan [1]. Ushbu yondashuv oilaviy munosabatlarga tatbiq etilganda, shaxsning oiladagi qarorlarga ta'sir ko'rsata olmasligi kuchsizlikni; munosabatlarning subyektiv mazmunini yo'qotishi ma'nosizlikni; oilaviy me'yorlar va real xatti-harakatlar o'rtasidagi tafovut me'yoriy begonalashuvni; yaqinlar bilan hissiy aloqaning susayishi izolyatsiyani; oila doirasida o'zining haqiqiy his-tuyg'ularini namoyon qila olmaslik esa o'zidan begonalashuvni ifodalaydi.

E.Fromm begonalashuvni insonning o'z kuchlari, ehtiyojlari va haqiqiy mavjudligidan uzoqlashishi bilan bog'laydi [2]. Oilaviy munosabatlarda shaxs o'zini faqat muayyan rolning bajaruvchisi sifatida idrok eta boshlasa, masalan, faqat moddiy ta'minotchi, uy-ro'zg'or ishlarini bajaruvchi yoki nazorat qiluvchi ota-ona sifatida mavjud bo'lsa, uning yaxlit shaxs sifatida tan olinishi kamayadi. Bunday vaziyatda funksional foydalilik emotsional qadrlarning o'rmini egallaydi va oila a'zosi uning kechinmalari emas, vazifalarni bajarish qobiliyati uchun baholanayotganini his qiladi. R.Weiss yolg'izlikni emotsional va ijtimoiy izolyatsiya shakllariga ajratgan [3]. Emotsional izolyatsiya shaxsning yaqin, ishonchli va xavfsiz bog'lanish obyektiga ega emasligi bilan tavsiflansa, ijtimoiy izolyatsiya tegishlilik hissini ta'minlovchi munosabatlar tarmog'ining yetishmasligi bilan bog'liq. Oilaviy emotsional alienatsiya Weiss ta'riflagan emotsional izolyatsiyaga yaqin bo'lsa-da, undan kengroqdir. Chunki alienatsiya nafaqat yaqinlikning yetishmasligini, balki mavjud munosabatlarning begona, formal, nazorat qiluvchi yoki shaxsning ichki ehtiyojlariga zid deb kechirilishini ham qamrab oladi.

L.Peplau va D.Perlman yolg'izlikni shaxs istagan munosabatlar bilan amalda mavjud munosabatlar o'rtasidagi sifat yoki miqdor tafovuti natijasida yuzaga keladigan yoqimsiz kechinma sifatida tushuntiradi [4]. Mazkur kognitiv-diskrepant yondashuv oilaviy alienatsiyani tahlil qilishda muhimdir. Oila a'zolari o'rtasida muloqot miqdoran ko'p bo'lishi mumkin, lekin agar bu muloqot shaxsning tushunilish, tan olinishi va xavfsiz yaqinlikka bo'lgan ehtiyojini qondirmasa, subyektiv emotsional masofa saqlanib qoladi. J.Cacioppo va W.Patrick yolg'izlik hamda idrok etilgan ijtimoiy izolyatsiyaning shaxsning diqqat, baholash va xulq-atvor tizimlariga ta'sir qilishini ko'rsatadi [5]. O'zini hissiy jihatdan ajralgan deb his qilgan shaxs boshqalarning neytral xatti-harakatlarini ham rad etish yoki befarqlik belgisi sifatida talqin qilishi, shaxslararo xavfga nisbatan ortiqcha sezgir bo'lishi mumkin. Oilaviy alienatsiya davom etgan sari salbiy talqinlar, himoyaviy chekinish va javobsiz qolgan emotsional ehtiyojlar o'zaro mustahkamlanadigan yopiq doira yuzaga keladi. J.Bowlbyning bog'lanish nazariyasiga ko'ra, yaqin insonning emotsional mavjudligi va javobchanligi xavfsizlikning asosiy psixologik manbaidir [6]. Xavfsiz bog'lanish shaxsga yaqinlikni qabul qilish, yordam so'rash, o'z ehtiyojlarini ifodalash va nizodan keyin munosabatni tiklash imkonini beradi. Beqaror, qochuvchi yoki xavotirli bog'lanish uslublari esa oilada hissiy talabchanlik, ortiqcha nazorat, sovuqlik, yaqinlikdan qochish

yoki rad etilishdan doimiy qo'rqish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Emotsional alienatsiyaning avlodlararo uzatilishi ko'p jihatdan ana shu bog'lanish modellarining takror ishlab chiqarilishi bilan izohlanadi.

M.Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasi oilani o'zaro bog'liq emotsional birlik sifatida ko'radi [7]. Tizimdagi bir a'zoning xavotiri va emotsional reaksiyasi boshqa a'zoning xulq-atvoriga ham ta'sir qiladi. Shaxsiy differensiallashuv darajasi past bo'lgan oilalarda yaqinlik va avtonomiya o'rtasidagi muvozanat buziladi: ayrim oilalar haddan tashqari qo'shilib ketish, boshqalari esa emotsional uzilish orqali xavotirni boshqaradi. Emotsional uzilish tashqi ziddiyatni kamaytirishi mumkin, lekin hal etilmagan munosabatlar va ichki begonalashuvni saqlab qoladi. D.Olsonning sirkumpleks modeli oilaviy funksionallikni emotsional jipslik, moslashuvchanlik va kommunikatsiya o'lchovlari orqali tushuntiradi [8]. Muvozanatli jipslik oila a'zolariga ham tegishlilikni, ham shaxsiy avtonomiyani saqlash imkonini beradi. Juda past jipslik emotsional ajralganlikka, haddan tashqari yuqori jipslik esa shaxsiy chegaralarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli emotsional alienatsiyaning aksi oila a'zolarining doimo birga bo'lishi emas, balki yaqinlik va individuallik o'rtasidagi sog'lom muvozanatdir.

F.Walshning oilaviy rezilyentlik konsepsiyasida oilaning qiyinchiliklarni birgalikda mazmunlashtirishi, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya, moslashuvchan tashkiliy tuzilma hamda ijtimoiy resurslardan foydalanishi barqarorlikning asosiy omillari sifatida ko'rsatiladi [9]. Ushbu resurslar emotsional alienatsiyaga qarshi himoya vazifasini bajaradi. Oilada muammolar yashirilmasdan muhokama qilinsa, har bir a'zoning hissasi tan olinsa va yordam so'rash zaiflik sifatida baholanmasa, stress shaxslarni bir-biridan uzoqlashtirish o'miga hamkorlikni kuchaytirishi mumkin. D.Russell tomonidan ishlab chiqilgan yolg'izlik shkalasi shaxsning subyektiv yolg'izlik va ijtimoiy izolyatsiya kechinmalarini baholash imkonini beradi [10]. Biroq oilaviy emotsional alienatsiyani to'liq diagnostika qilish uchun umumiy yolg'izlik ko'rsatkichidan tashqari, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional aloqa, o'zaro qo'llab-quvvatlash, qarorlar qabul qilishdagi ishtirok, birgalikda vaqt o'tkazish va qaramli muloqotning real yaqinlikka ta'siri ham o'rganilishi zarur.


C.Rogersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda shartsiz ijobiy qabul, empatik tushunish va samimiylilik psixologik rivojlanishning zarur shartlari deb qaraladi [11]. Oilada shaxs faqat ma'lum talablarni bajargandagina qabul qilinsa yoki uning his-tuyg'ulari doimiy ravishda inkor etilsa, u o'zining haqiqiy kechinmalarini yashirishni o'rganadi. Bu jarayon tashqi moslashuvni ta'minlagandek ko'rinsa-da, ichki o'zidan begonalashuv va munosabatlarda sun'iylikni kuchaytiradi. V.Bengtson va R.Robertsning avlodlararo birdamlik modelida oila a'zolari o'rtasidagi muloqot, hissiy yaqinlik, qadriyatlar kelishuvi, funksional yordam va oilaviy majburiyatlarning bir-birini to'ldirishi ta'kidlanadi [12]. Avlodlar o'rtasidagi aloqalar faqat birga yashash yoki moddiy yordam bilan cheklanmasdan, hissiy qabul, qarorlarni hurmat qilish va o'zaro tan olishni ham qamrab olishi lozim. Aks holda, yuqori funksional bog'liqlik fonida ham emotsional masofa saqlanishi mumkin.

Oilaviy emotsional alienatsiyaning individual determinantlariga past o'zini o'zi baholash, emotsiyalarni anglash va ifodalashdagi qiyinchilik, empatiyaning sustligi, rad etilishga yuqori sezgirlik, rigid kognitiv sxemalar, psixologik travma tajribasi va xavfsiz bo'lmagan bog'lanish uslublari kiradi. Bunday xususiyatlar shaxsning yaqinlikni qabul qilishi yoki boshqalarning emotsional signallariga mos javob berishini qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, individual xususiyatlar oilaviy

kontekstdan ajralgan holda emas, o'zaro munosabatlar doirasida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oiladagi iliq munosabatlar, oilaga bag'ishlanish, samimiylilik, ochiqlik, shaxslararo munosabatlar va oilani markaziy hayotiy qadriyat sifatida e'tirof etish emotsional integratsiya resurslari sifatida qabul

qilindi. Yuqori ijtimoiy mavqe, tashvishsiz hayot, moddiy yordam, moddiy ta'minot va martabaning munosabatlardan keskin ustun qo'yilishi esa o'z-o'zicha salbiy qadriyat deb emas, balki emotsional almashinuv ikkilamchi o'ringa tushgan sharoitda alienatsiya xavfini oshiruvchi instrumental yo'nalish sifatida baholandi.




1-rasm. Oilaviy qadriyatlar orientatsiyasining emotsional profililar bo'yicha taqsimoti

Oilaviy hayotga doir qadriyatlar taqsimoti ikki profil o'rtasida sezilarli mazmuniy farq mavjudligini ko'rsatadi. Emotsional integratsiya resurslari ustun profilda oiladagi iliq va g'amxo'r munosabatlar hamda oilaning farovonligi 60 foiz bilan mutlaq yetakchi o'rinni egallagan. Emotsional alienatsiya xavfi ustun profilda ushbu ko'rsatkich atigi 8 foizni tashkil etgan. Mazkur 52 foizlik tafovut oilaviy yaqinlikning qadriyatlar iyerarxiyasidagi o'rni ikki profilning asosiy farqlovchi belgisi ekanini ko'rsatadi. Emotsional integratsiya resurslari ustun profilda odamlarga hurmat va yordam berish 8 foiz, sezgirlik, jismoniy jozibadorlik va tashqi ko'rinishga e'tibor 4 foiz, shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish 4 foiz, ijodkorlik 4 foiz, yuqori ijtimoiy mavqe 12 foiz, tashvishsiz hayot 8 foizni tashkil qilgan. Bu profilning mazmunida oilaviy munosabatlar markaziy o'rinni egallasa-da, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy yordam, tashqi jozibadorlik, ijodkorlik, mavqe va qulaylik kabi individual ehtiyojlar ham butunlay inkor qilinmagan. Demak, integratsiya o'zlikdan voz kechish emas, shaxsiy va oilaviy ehtiyojlarning emotsional aloqalar atrofida muvozanatlashuvini anglatadi.

Alienatsiya xavfi ustun profilda yuqori ijtimoiy mavqe 52 foiz va tashvishsiz hayot 32 foiz bilan yetakchi bo'lgan. Shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish 4 foiz, ijodkorlik 4 foiz, oiladagi iliq va g'amxo'r munosabatlar 8 foizni tashkil etgan; odamlarga hurmat va yordam berish hamda sezgirlik bilan bog'liq tanlovlar alohida ulush sifatida qayd etilmagan. Ushbu tuzilma munosabatlarga yo'naltirilgan qadriyatlar status va individual qulaylikka yo'naltirilgan qadriyatlariga siljishni ifodalaydi. Natijalar emotsional alienatsiya xavfini shaxsiy muvaffaqiyatning o'zi bilan emas, balki munosabatlarning qadriyatsizlanishi bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Yuqori ijtimoiy mavqega intilish oila uchun iqtisodiy va ijtimoiy resurs

yaratishi mumkin. Biroq u oiladagi iliq munosabatlar, o'zaro yordam va emotsional mavjudlikni ikkilamchi o'ringa tushirsa, oilaviy aloqa instrumental xususiyat kasb etadi. Bunday sharoitda oila a'zosi uning kimligi va nimalarni his qilishi uchun emas, qanday maqom yoki foyda keltirishi uchun qadrlanayotganini his qilishi mumkin.

Tashvishsiz hayotning 32 foizgacha ortishi ham ikki xil mazmunga ega. Bir tomondan, xavfsiz va barqaror hayotga intilish tabiiy ehtiyojdir. Ikkinchi tomondan, tashvishsiz hayot nizolarni konstruktiv hal etish o'miga qiyin hissiy mavzulardan qochish, muammolarni inkor qilish yoki yuzaki osoyishtalikni saqlash shaklida talqin qilinsa, emotsional alienatsiyani yashiruvchi mexanizmga aylanishi mumkin. Oila tashqi tinchlikni saqlaydi, biroq ichki kechinmalar muhokama qilinmaydi. Integratsiya profilidagi odamlarga hurmat va yordam berishning 8 foiz, sezgirlik bilan bog'liq yo'nalishning 4 foiz bo'lishi emotsional javobchanlikning qadriyatli asosini ko'rsatadi. Hissiy yaqinlik faqat iliq tuyg'ular bilan emas, boshqa oila a'zosining ehtiyojini sezish, unga munosib javob berish va yordamni majburiyat emas, o'zaro daxldorlik ifodasi sifatida qabul qilish bilan rivojlanadi. Har ikki profilda shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish va ijodkorlik 4 foizdan qayd etilgan mazkur qadriyatlarning farqlovchi kuchi pastroq ekanini ko'rsatadi. Biroq ularning oilaviy kontekstdagi mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Integratsiyalashgan oilada shaxsiy rivojlanish oila tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va umumiy farovonlikni boyitadigan jarayon bo'lsa, alienatsiya xavfi mavjud oilada u munosabatlardan psixologik chekinish yoki faqat individual yutuqqa yo'naltirilganlik shaklini olishi mumkin. Buni aniqlash uchun qadriyatning miqdoriy ulushi bilan birga uning subyektiv ma'nosini ham o'rganish zarur.



2-rasm. Oilaviy qadriyatlar orientatsiyasining emotsional profililar bo'yicha taqsimoti

Moddiy yordamning alienatsiya xavfi profilida 40 foizga yetishi moddiy qo'llab-quvvatlashning salbiy ekanini

bildirmaydi. Aksincha, u oilaviy xavfsizlikning muhim shartidir. Muammo moddiy yordam emotsional mavjudlikning

o'rmini bosganda yuzaga keladi. Oila a'zosi moddiy ehtiyojlari qondirilayotgan bo'lsa-da, tinglanmasligi, tushunilmasligi va hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin. Bunday holatni "instrumental qo'llab-quvvatlashning emotsional qo'llab-quvvatlashdan uzilishi" deb tavsiflash mumkin.

Ro'zg'or ishlarining 24 foiz bilan yuqori o'ringa chiqishi munosabatlarning vazifaviy tashkil etilganligini ko'rsatadi. Kundalik majburiyatlarning adolatli bajarilishi oila barqarorligi uchun zarur. Biroq er-xotin o'zaro munosabatni faqat kim nima qilishi kerakligi bilan belgilasa, sheriklikning emotsional mazmuni zaiflashadi. Vazifalar bajariladi, lekin minnatdorlik, tan olinishi va birgalikdan zavqlanish hissi kamayadi. Jinsiy hayotdagi uyg'unlik alienatsiya xavfi profilida 20 foiz, integratsiya profilida 8 foizni tashkil etgan. Ushbu natijani yuqori jinsiy uyg'unlik alienatsiyani kuchaytiradi deb talqin qilish noto'g'ri bo'ladi. Aksincha, jinsiy yaqinlik er-xotin aloqasining muhim tarkibiy qismidir. Biroq u samimiylilik, ishonch va emotsional ochiqlikdan ajralgan holda munosabatlarning umumiy yaxlitligini ta'minlay olmaydi. Jismoniy yaqinlik mavjud bo'lsa ham, shaxs o'zini hissiy jihatdan begona his qilishi mumkin. Integratsiya profilida turmush o'trog'ini dam olish hamrohi sifatida ko'rish 12 foiz bo'lishi birgalikda vaqt o'tkazishning emotsional yaqinlikdagi rolini ko'rsatadi. Umumiy mashg'ulotlar, sayr, suhbat, oilaviy marosimlar va birgalikdagi dam olish turmush o'troqlarining bir-birini faqat vazifa bajaruvchi emas, qiziqishlari va his-tuyg'ulariga ega shaxs sifatida qayta kashf etishiga yordam beradi. Alienatsiya xavfi profilida ushbu yo'nalishning qayd etilmagani munosabatlarning kundalik majburiyatlar bilan cheklanish ehtimolini ko'rsatadi.

Samimiylilik va ochiqlikning integratsiya profilida alohida ko'rsatkich sifatida mavjudligi, alienatsiya xavfi profilida esa qayd etilmagani muhim psixologik tafovutdir. Ochiq muloqot faqat ma'lumot almashish emas, balki shaxsning o'z zaifligi, qo'rquvi, umidi va qoniqmasligini jazolanish yoki kamsitilishdan qo'rqmasdan ifoda eta olishidir. Bunday xavfsizlik bo'lmasa, oila a'zolari tashqi rolni saqlab, ichki kechinmalarini yashiradi va vaqt o'tishi bilan o'zaro begonalashadi. Har ikki profilida ma'qullash 4 foizdan qayd etilgani ushbu ehtiyojning umumiylikni ko'rsatadi. Har bir shaxs oila doirasida uning mehnati, yutug'i va hissasi tan olinishiga ehtiyoj sezadi. Biroq ma'qullash shartli qabulga aylansa, ya'ni shaxs faqat muvaffaqiyati yoki itoatkorligi uchun

qadrlansa, u emotsional xavfsizlikni emas, baholanishga qaramlikni kuchaytiradi. Shu sababli ma'qullashning sifati va shartsiz qabul bilan uyg'unligi muhimdir.

Xulosa va takliflar. Oilaviy emotsional alienatsiya jismoniy masofa yoki oilaning formal buzilishi bilangina belgilanmaydigan, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional javobchanlik, psixologik daxldorlik, ishonch, o'zaro tan olinishi va munosabatlarning subyektiv ma'nosi pasayishi bilan tavsiflanadigan ko'p darajali ijtimoiy-psixologik fenomendir. U tashqi jihatdan barqaror va funksional ko'rinadigan oilalarda ham yashirin shaklda mavjud bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar iyerarxiyasi emotsional integratsiya yoki begonalashuv xavfini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Emotsional integratsiya resurslari ustun profilida oiladagi iliq va g'amxo'r munosabatlar 60 foiz, oilaga bag'ishlanish 60 foiz va oila mustaqil hayotiy qadriyat sifatida 56 foiz bilan yetakchilik qilgan. Bu ko'rsatkichlar emotsional yaqinlik, mansublik va oilaviy ma'no o'zaro bir-birini mustahkamlovchi yaxlit tizimni tashkil etishini ko'rsatadi. Emotsional alienatsiya xavfi ustun profilida yuqori ijtimoiy mavqe 52 foiz, tashvishsiz hayot 32 foiz, moddiy yordam 40 foiz, ro'zg'or ishlari 24 foiz, moddiy ta'minot 44 foiz va martaba 24 foiz bilan ustun bo'lgan. Shu bilan birga, oiladagi iliq munosabatlar 8 foiz, oilaga sadoqat 12 foiz va oila yetakchi hayotiy qadriyat sifatida 12 foizgacha pasaygan. Mazkur natija moddiy yoki kasbiy qadriyatlarining salbiyligini emas, balki ular emotsional munosabatlarning o'rinni egallaganida yuzaga keladigan instrumentalizatsiya xavfini ko'rsatadi.

Oilaviy munosabatlarda emotsional va instrumental qo'llab-quvvatlash bir-birini to'ldirishi kerak. Moddiy ta'minot, maishiy majburiyatlar va jinsiy yaqinlik oilaviy barqarorlikning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular samimiylilik, ochiqlik, birgalikdagi vaqt, empatik tinglash va psixologik xavfsizlikdan ajralgan holda emotsional yaqinlikni ta'minlay olmaydi. Oilaning yuqori deklarativ qadri doimo past alienatsiyani anglatmaydi. Oilaga sadoqat shaxsning his-tuyg'ularini inkor etish, nosog'lom munosabatlarga chidash yoki tashqi obro'ni saqlash bilan tenglashtirilsa, normativ birdamlik fonida yashirin begonalashuv kuchayishi mumkin. Shu sababli diagnostikada oilaga oid e'tiqodlar bilan birga real muloqot sifati va subyektiv emotsional kechinmalar ham baholanishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Seeman M. On the Meaning of Alienation // American Sociological Review. 1959. Vol. 24. No. 6. P. 783–791. DOI: 10.2307/2088565.
2. Fromm E. The Sane Society. New York: Rinehart, 1955.
3. Weiss R. S. Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation. Cambridge, Massachusetts: The Massachusetts Institute of Technology Press, 1973.
4. Peplau L. A., Perlman D. Perspectives on Loneliness // Loneliness: A Sourcebook of Current Theory, Research and Therapy / Eds. L. A. Peplau, D. Perlman. New York: John Wiley and Sons, 1982. P. 1–18.
5. Cacioppo J. T., Patrick W. Loneliness: Human Nature and the Need for Social Connection. New York: W. W. Norton and Company, 2008.
6. Axmedova D. Migratsiya davrida insonning ruhiy jarohati: sabablar va oqibatlari //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 46-48.
7. Axmedova Dildora Olimjonovna, Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili, Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender Va Oila Xalqaro Ilmiy Jurnal: 2024-Yil. 3-Son.
8. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. Second edition. New York: Basic Books, 1982.
9. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. New York: Jason Aronson, 1978.
10. Olson D. H. Circumplex Model of Marital and Family Systems // Journal of Family Therapy. 2000. Vol. 22. No. 2. P. 144–167. DOI: 10.1111/1467-6427.00144.
11. Walsh F. Strengthening Family Resilience. Third edition. New York: The Guilford Press, 2016.
12. Russell D. W. UCLA Loneliness Scale, Version 3: Reliability, Validity, and Factor Structure // Journal of Personality Assessment. 1996. Vol. 66. No. 1. P. 20–40. DOI: 10.1207/s15327752jpa6601_2.
13. Rogers C. R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961.
14. Bengtson V. L., Roberts R. E. L. Intergenerational Solidarity in Aging Families: An Example of Formal Theory Construction // Journal of Marriage and the Family. 1991. Vol. 53. No. 4. P. 856–870. DOI: 10.2307/352993.